

ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯ ЖУРНАЛИ
ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЯ В ЭКОНОМИКЕ
JOURNAL OF INNOVATION IN ECONOMICS

Bakiyeva Iroda

Toshkent Moliya institutikatta o'qituvchisi

Raximova Shohida Maqsud qizi

Toshkent Moliya instituti 2-kurs talabasi



<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9491-2019-3-3>

O'ZBEKISTONDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI
INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Annotatsiya. Maqolada mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati rivojlantirishni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilingan va raqobat sharoitida ularning innovatsion salohiyati, investitsion faolligini oshirib borish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch so'zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kichik biznes subyekt, mikrofirmalar, aksiyalar likvidligi, intellektual resurslar, innovatsion jarayon, yalpi milliy mahsulot, kommunant firmalar, valyuta maydonchasi, aksiyalar paketi.

Бакиев Ирода

Старший преподаватель Ташкентского
финансового института

Рахимова Шохид Мақсуд қизи

Студент 2 курса Ташкентского финансового
института

НАПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В
УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. Статья посвящена роли малого бизнеса и частного предпринимательства в экономике страны, а также стимулированию развития предпринимательства в Республике Узбекистан, анализу факторов, влияющих на развитие субъектов предпринимательства и их инновационного потенциала в конкурентной среде, и научно обоснованные рекомендации и рекомендации о том, как улучшить.

Ключевые слова: малое бизнес, частное предпринимательство, малое предпринимательство, микрофирмы, ликвидность акций, интеллектуальные ресурсы, инновационный процесс, ВВП, ВНП, коммунальные фирмы, валютная платформа, пакет акций.

DIRECTIONS OF INNOVATIVE BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Abstract. The article focuses on the role of small business and private entrepreneurship in the country's economy, as well as encouraging the development of entrepreneurship in the Republic of Uzbekistan, analyzing the factors affecting the development of entrepreneurship subjects and their innovative potential in the competitive environment, and scientifically-based recommendations and recommendations on how to improve

Key words. small business, private entrepreneurship, microfirm, liquidity, intellectual resources, innovation process, gross national product, gross domestic product, communal firms, currency platform, stock package.

For citation: Bakiev Iroda, Raximova Shohida Maqsud qizi. DIRECTIONS OF INNOVATIVE BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN. 2019, 3 vol., issue 1, pp. 18-24

Kirish

Kichik biznes va tadbirkorlik sohasi yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, asosan iqtisodiy o'sish sur'atlarini, aholi bandligi holatini, yalpi ichki mahsulotning tarkibi va sifatini belgilaydi. Kichik biznesni rivojlantirish moslashuvchan aralash iqtidoyotni shakllantirish, raqobatbardosh bozor mexanizmining kompleks sintezi va yirik, o'rta va kichik hajmdagi mahsulotlarni davlat tomonidan tartibga solishni o'z ichiga olgan mulk shakllarining kombinatsiyasi va mos iqtisodiy modelni shakllantirishga qaratilgan global tendensiyalarga javob beradi. Kichik biznes - bozor iqtisodiyotining asosi.

Kichik biznes obyektiv ravishda zamonaviy bozor iqtisodiyotining nisbatan mustaqil bo'limi sifatida mavjud bo'lib, turli xil va hajmdagi korxonalar, jumladan, kichik korxonalar mavjudligi va o'zaro bog'liqligi bilan ajralib turadi. Katta biznes mamlakat iqtisodiyotining asosiy ehtiyojlarini ta'minlab beradigan bo'lsa, kichik korxonalar bozorda o'zlarining o'rmini egallaydi, mahalliy talab yoki maxsus mahsulotlar va xizmatlar, shu jumladan innovatsion sohasida maxsus ehtiyojlarni qondiradi.

Ijtimoiy iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy taraqqiyotning muhim muammolarini hal qilish uchun iqtisodiy asos yaratishning hal qiluvchi omilidir.

Kichik tadbirkorlik aholi bandligini kengaytirish va daromadlarini oshirish uchun sharoitlar yaratadi, maxsus ijtimoiy muhitni shakllantiradi, jamiyatning segmentlari o'rtasidagi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qarama-qarshiliklarning keskin burchaklarini yumshatadi, raqobatni rivojlantirishga, shu bilan birga iste'molchilar va jamiyat manfaatiga ega bo'lgan tovarlarga raqobatbardosh narxlarni shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, u sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida ko'rsatiladigan xizmatlarning kengayishiga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirishda innovatsion yangiliklar yaratish hamda ularni amaliyotda qo'llanishi juda muhim hisoblanadi. Xalqaro tajribalardan ham ma'lumki, iqtisodiyot va jamiyatning taraqqiyot darajasi ko'p jihatdan innovatsion faoliyatga bog'liq. Amalga oshirilayotgan islohotlar va rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayanib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida

belgilashning bir qancha sabablari mavjud bo'lib, bunda sohaning ichki bozorni zarur tovarlar va xizmatlar bilan to'ldirishdagi ahamiyati muhim kasb etadi.

Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasini oshirishini, kichik sanoat zonalarining yaratilishi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsion jarayonlariga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish orqali ko'rishimiz mumkin.

Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz joizki, yetarli eksport salohiyatiga ega bo'lgan, biroq ayni paytda yanada rivojlanish uchun yetarli darajada kapitalga ega bo'lmagan muvaffaqiyatli va istiqbolli kichik korxonalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash katta ahamiyat talab etadi. Ushbu chora-tadbirlarni samarali kichik biznes sohasida ko'proq ish o'rini yaratishga, jahon bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirishga yordam berib, mamlakat eksport salohiyatini oshirishga va aholi daromadlarini oshishiga imkon yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy sektorning rivojlanishi, tadbirkorlik faoliyatini kengayishi va huquqiy kafolotlarning ta'minlashi bozor sektorlarining erkin raqobat sharoitida rivojlanishi va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida yalpi ishlab chiqarishning asosiy qismi xususiy sektorga to'g'ri keladi.

Respublikamizda xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarini qonuniy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularga belgilangan soliqlarning stavkalarini pasaytirilishi natijasida ushbu tarmoq bugungi kunda iqtisodiyotning yetakchi bo'g'iniga aylanib ulgurdi. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi, ularning mamlakat yalpi milliy mahsuloti tarkibidagi ulushi tobora o'sib bormoqda [3].

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 2018 yilda 2012 yilga nisbatan 1,15 foizga oshgan bo'lib, mos ravishda 2012 yilda 62,4 foizni, 2018 yilga kelib 71,8 foizni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkichlarni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, yalpi ulushi Namangan viloyatida (2012 yilda 78,4 foiz, 2018 yilda 80,3 foiz) hamda Jizzax viloyatida (2012 yilda 79,2 foiz, 2016 yilda 80,3 foiz) yuqori ulushga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu yerda eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatiga to'g'ri kelmoqda (2012 yilda 35,7 foiz, 2016 yilda 37,6 foiz) [6].

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi eng ko'pi Jizzax (84,4%), Samarqand (80,3%), Buxoro (79,8%), Surxondaryo (79,4%) va Namangan (79,0%) viloyatlari tashkil etdi. Navoiy viloyatida ushbu ko'rsatkich (42,4%) past bo'lib qolmoqda.

2018 yilda yangi tashkil topgan korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo'yicha eng ko'p Toshkent shahrida-12071 ta, Toshkent viloyatida-5080 ta, Samarqand viloyatida-4312 ta, Farg'ona viloyatida-3780 ta, Andijon viloyatida-3131 ta, Buxoro viloyatida-3024 ta, Namangan, Surxondaryo viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Navoiy viloyatlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 2709-1810 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyati-1354 tani tashkil etgan [5].

Shuningdek, 2019-yil 1-aprel holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 289,7 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 21,4%ga oshgan. 30,4 mingdan ortiq kichik korxonalar va firmalar yangi tashkil etildi. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda 17,2 mingtaga ko'pdir.

**Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakat
yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushining o'zgarishi (foizda)**

Ko'rsatkichlar	Yillar						
	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018
Respublika bo'yicha YaIM	100	100	100	100	100	100	100
<i>Jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushi</i>	62,4	63,0	63,6	64,1	64,1	70,0	71,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	63,6	64,0	64,5	64,6	57,0	54,3	55,8
Andijon viloyati	57,0	57,5	59,4	61,4	66,0	73,4	79,9
Buxoro viloyati	54,6	55,8	56,1	56,5	56,9	79,8	79,2
Jizzax viloyati	79,2	79,9	79,9	80,1	80,3	84,3	84,4
Qashqadaryo viloyati	51,4	51,4	51,5	51,6	51,7	64,3	65,1
Navoiy viloyati	35,7	36,1	36,9	37,1	37,6	42,4	47,9
Namangan viloyati	78,4	79,5	79,7	80,2	80,3	79,0	79,9
Samarqand viloyati	75,9	77,1	77,4	77,9	78,0	80,0	81,8
Surxondaryo viloyati	73,7	74,1	74,5	75,2	75,3	79,4	78,7
Sirdaryo viloyati	66,7	67,3	67,7	68,5	68,7	76,9	76,5
Toshkent viloyati	54,6	55,3	56,2	56,7	57,1	57,9	63,6
Farg'ona viloyati	54,6	55,3	56,2	56,7	57,1	69,8	70,6
Xorazm viloyati	73,5	73,8	73,9	74,1	74,2	75,9	78,3
Toshkent shahri	54,6	55,3	56,2	56,7	57,1	63,4	64,2

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, "2018-yil faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qildilar. "Faol tadbirkor deganda, biz raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga qodir, eng muhimi, yangi ish o'rinlari yaratib, nafaqat o'zini va oilasini boqadigan, balki butun jamiyatga naf keltiradigan ishbilarmon insonlarni tushunamiz. Bunday tadbirkorlar safini kengaytirish, jumadan, yuqori texnologiyalar, ilm-fanning eng so'nggi yutuqlariga asoslangan texnika va asbob-uskunalarni mamlakatimizga olib kelish hamda joriy etish uchun ularga munosib sharoitlar yaratish bizning birinchi galdagi vazifamiz bo'lishi shart"- deb ta'kidlaganlar Prezidentimiz [1].

Nafaqat o'tgan yil, balki bu yil ham tadbirkorlik sohasiga yanada katta e'tibor berilyapti. Tadbirkor uchun imkoniyat yaratilsa yaratilyaptiki, kamaymayapti.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichi innovatsion jarayonlar uzluksizligini ta'minlash va ko'lamini oshirishni talab etadi. Bunday sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligi o'z faoliyatini fan va texnologiya yutuqlariga asoslangan ishlanmalar, sanoatda keng ko'lamli ilm-fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab

chiqarishni joriy qilish, shuningdek, ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishga, amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilganligi bilan belgilanadi.

Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyuldagi "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini takomillashtirish natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" Qarorining 4-bandida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi davlat budgetining 2019 yil va undan keyingi yillarga mo'ljallangan parametrlarini shakllantirishda "Ilm-fan" moddasi bo'yicha ajratilayotgan mablag'lar doirasida innovatsion g'oyalari va ilg'or texnologiyalarni amalga oshirish uchun mablag'alarning kamida 20 foizi yo'naltirishi belgilandi[2].

Bu o'z navbatida davlat-xususiy sherikchilik loyihalarini, shu jumladan, davlat-xususiy ilmiy klasterlarini yaratishga, ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarni respublika iqtisodiyoti tarmoqlari va mintaqalari ehtiyojlariga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish ko'zda tutilgan bo'lsa, bundan tashqari ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirishga, shu jumladan, budget mablag'alari oluvchilar faoliyatini tegishli maslahatchilar tomonidan ekspertizadan o'tkazish, qo'llab-quvvatlash, xalqaro standartlarga muvofiq biznes-rejalarni tayyorlashga grantlar ajratish ko'zda tutiladi.

Innovatsion tadbirkorlikning afzalligi innovatsion g'oyalarni qidirishga intilish, yangi loyihalarni amalga oshirishga intilish va qayta ishlash adekvativ tashkiliy mexanizmlarini talab qiladi. Innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy shakllarining mustahkamligi uning afzalligini kapital ishlab chiqarishning an'anaviy usullari bilan aniqlanadi. Innovatsion tadbirkorlik tashkiliy tuzilmasining mustahkamligi innovatsion jarayonning aniq topshiriqlarini rivojlanishini, xaziralari bilan ta'minlanganligi, aniq ma'lumot bazasiga egaligi, innovatsion loyihani amalga oshirish doirasini ko'rsatadi. Aynan shu paytda innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy tizimi umumiy xususiyati hamda ularda tavakkal omilining o'zlashtirishi, maqsadga erishishida noaniqlik va oxirgi natijalar bilan bog'liq.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida innovatsion tadbirkorlik faoliyati ustunliklari quyidagilardan iborat:

- yangilik yaratishdan manfaatdorlikning yuqoriligi;
- tor doirada (aniq yo'nalishda) ilmiy izlanishlarni olib borilishi;
- intellektual resurslarni yakuniy mahsulot ishlab chiqarishga samarali tarzda yo'naltirish imkonining yuqoriligi;
- katta korxonalar amalga oshira olmaydigan yuqori "risk"li ishlarni kam xarajat va yuqori samara bilan olib borish imkonining mavjudligi.

Innovatsion tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy asoslari turlichadir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlarda katta risk (tavakkalchilik) bilan ishlaydigan maxsus venchur firmalar mavjud bo'lib, ular yangi tovar va xizmatlarni yaratish ustida tadqiqotlar olib boradilar.

Venchur firma asoschilari-injener, olimlar o'z tadqiqot natijalarini eksperiment, patent va kommunant firmalarga topshiradilar.

Innovatsion tadbirkorlikning yana bir hududiy tashkiliy turi-ilmiy texnologik park (texnopark) lar bo'lib, bu tashkiliy tizim innovatsion biznes mahsulotlarini ishlab chiqarish va bozorda sotishni tashkil qilishga yordam beradi va shu orqali kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

Yangi g'oyalarni izlash va ularni tatbiq etish tadbirkorlikning eng muhim va shu bilan birga eng murakkab vazifasidir. Chunki, bu holda tadbirkordan nafaqat ijodiy fikrlash va yangi yechimlarni topish, balki istiqbolli fikrlash, kelajakni ko'rsa olish xususiyatini ham

talab etadi. Innovatsion-tadbirkorlikning alohida quroli, tadbirkorona fikrlash innovatsion ko'rinishidir [7].

Shuni ta'kidlash lozimki, har qanday innovatsion faoliyat tadbirkorlikdir, zero, u yangi g'oyalarni izlash, zarur resurslarni izlash; korxonani yaratish va boshqarish; moddiy daromad olish va uning natijasidan shaxsan qoniqishga asoslanadi.

Ammo, har qanday tadbirkorlik ham innovatsion bo'la olmaydi, faqatgina yaratilishi natijasida tadbirkorlik daromadini, innovatsion mahsulotning diffuziyasini ishlatishga imkoniyat beruvchilarnigina innovatsion deyish mumkin. Innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar innovatsion tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Oqilona investitsiya siyosati yuritishda davlat tomonidan innovatsion tadbirkorlikka sarmoya qo'yishning o'ziga xos afzalliklari mavjud. Salohiyatli sarmoyadorlarning erkin pul mablag'larini jalb etishida eng muhim iqtisodiy instrument fond bozoridir. Aksiyalar likvidligi, firmaning reklama-axborot faoliyati, valyuta maydonchasida sotuvda qo'yilgan aksiyalar harakatining tahlili va aksiyalar paketini chet el investorlariga sotish fond bozori holatining yanada yaxshilashiga xizmat qiladi [4].

Shu bilan birga, mamlakatimizda "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilangan ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, huquqni muhafaza qiluvchi va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat'iy oldini olish, xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, sohaga to'liq erkinlik berish, bu yo'lda g'ov bo'lib turgan barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish masalasi ekanligi ana shundan dalolat beradi. Mamlakatimiz iqtisodiyotining jadal sur'atlarda rivojlanishi, aholining hayot darajasi va sifati yuksalishi ko'p jihatdan kichik biznes istiqboli bilan chambarchas bog'liqdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida qabul qilingan qarorlarning amaliyotga tatbiq etilishi, tekshirish ishlarining qisqarganligi, biznes yuritish uchun moliya va vaqt xarajatlarining kamayganligi, ro'yhatga olishning xabardor qilish tizimining joriy etilishi natijasida, ularning tashqi savdo faoliyati ko'rsatkichlarida ham ijobiy tendensiyalar yuz bermoqda. Import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kichik biznes subyektlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi eksport hajmida kichik biznesning hissasini oshirish imkonini bermoqda. Respublikamizda eksportining umumiy hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 2000 yilda 10,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilda 28,9 foizga oshgan [8].

Xulosa va takliflar

Shuni qayd qilish mumkinki, mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- mamlakat aholisi o'rtasida tadbirkorlik tushunchasi keng targ'ib etish, uning natijasida aholi daromadlarini kengaytirish maqsadida bir necha faoliyat turlari bilan shug'ullanishlari kerakligini tushuntirish;

- mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining iqtisodiyotda tutgan o'rnini hamda ahamiyatidan kelib chiqib, uning uchun iqtisodiyotda munosib raqobat muhitini ta'minlash;

- yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, keyinchalik esa chetga eksport qilish uchun sharoit yaratish maqsadida ular tomonidan realizatsiyaga chiqarilayotgan mahsulot (ish va xizmatlar) logistikasini tashkil qilish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi tomonidan yaratilayotgan har bir yangi ish o'rnini munosib baholash mexanizmini joriy qilish;

- bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy rivojlanishni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga oqilona safarbar etish;

- texnoparklar, startap maydonchalar tashkil etib, yangi innovatsion g'oyalarni yuzaga chiqarishga ko'maklashish, innovatsion biznes mahsulotini ishlab chiqarish va bozorda sotishni tashkil qilishga yordam berishni tashkil etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatini soliqqa tortishning eng sodd va hamma uchun qulay, tez o'zgarmaydigan hamda rag'batlantirish funksiyasi bilan proporsional bog'langan tizimini joriy qilish;

- innovatsion biznes mahsulotini ishlab chiqarish va bozorda sotishni tashkil qilishga yordam beradi va shu orqali kichik biznesda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga yordam beradi.

References

1. "Ma'rifat" gazetasi, 2017 yil 23 dekabr, №102-103(9064). ("Ma'rifat" newspaper, December 23, 2017, №102-103 (9064).

2. "Xalq so'zi" gazetasi, 2018 yil 17 iyul soni. (The newspaper "Xalq so'zi", July 17, 2018.)

3. O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami. T: 2017. (Annual Statistical Bulletin of the Republic of Uzbekistan. T: 2017)

4. Чеберко, Е. Ф. Основы предпринимательской деятельности. История предпринимательства - г. Москва, Издательство Юрайт, 2017. - 420 с. - (Серия : Бакалавр. Академический курс). - ISBN 978-5-534-00872-2. (Cheberko E. F Basics of entrepreneurial activity. History of Entrepreneurship - Moscow, Yurait Publishing House, 2017. - 420 p. - (Series: Bachelor. Academic course). - ISBN 978-5-534-00872-2.)

5. O'zbekiston axborot agentligi rasmiy sayti- <https://uza.uz> ma'lumotlari. (The official website of the Uzbekistan news agency- information on <https://uza.uz>.)

6. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti- www.stat.uz. ma'lumotlari. (The official site of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan - www.stat.uz.)